O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	

DUNYO DAVLATLARI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH TENDENSIYALARI



Imomaliyeva Mohizoda
TMI tadqiqotchisi



Raxmatullayev Lazizbek Nematullo o'g'li
TMI tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada jahon mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish tendensiyalari tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, dunyo miqyosidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar oqimi keltirilgan. Xalqaro tajribadan kelib chiqib xulosa, taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, investitsion jozibadorlik, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, investitsiya siyosati, investitsion rejim, yangi sanoatlashgan mamlakatlar.

Abstract: The article analyzes the trends of investment attraction in the development of the economy of world countries. Global foreign direct investment flows are also presented. Based on international experience, conclusions, proposals and recommendations were considered.

Key words: foreign investment, investment attractiveness, foreign direct investment, investment climate, investment policy, investment regime, newly industrialized countries.

Аннотация: В статье анализируются тенденции привлечения инвестиций в развитие экономики стран мира. Также представлены глобальные потоки прямых иностранных инвестиций. На основе международного опыта были рассмотрены выводы, предложения и рекомендации.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, инвестиционная привлекательность, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная политика, инвестиционный режим, новые индустриальные страны.

KIRISH

Jahon miqyosida mamlakat iqtisodiyotini investitsiyalar orqali rivojlantirishning ilg'or tajribalari ko'rsatishicha, davlat kafolati ostida qabul qilinayotgan investitsiya portfellari hissasining yuqoriligi mamlakatda investitsion jozibadorlikning pastligini ifodalaydi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi uchun qabul qilayotgan investitsiya portfellarining asosiy qismini erkin iqtisodiy zonalarga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tashkil etadi. BMTning xalqaro investitsiyalar bo'yicha hisobotiga ko'ra, "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 2021-yilda 1,58 trillion AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2020-yilga nisbatan 64 foizga ko'p. Biroq o'sishning deyarli to'rt dan uch qismi rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keldi, bu yerdagi oqim 2021-yilda 746 milliard AQSh dollariga yetgan va bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan ikki barobar ko'p". Bunday sharoitda milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalar orqali investitsiyalarning rolini oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilashning ahamiyati ortib bormoqda.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiyalik olim A. M. Margolin "Investitsiyalar" darsligida "Investitsiyalar – pul mablag'lari, maqsadli bank jamg'armalari, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko'rinishidagi kapital qo'yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo'lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorning strategik maqsadlarini ko'zlab, ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obyektlariga kiritishdir", – deb ta'riflaydi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan ppof. D. G'. G'ozibekov esa investitsiyalarni quyidagicha ta'riflaydi: "Investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimoli bor risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog'lash bo'lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg'arish maqsadiga qaratiladi".

Ma'lumki, investitsiyalar va iqtisodiy o'sish borasidagi bog'liqlikni taniqli iqtisodchi hamda olim, Nobel mukofotining laureati P. A. Camuelson "akselerator prinsipi" yordamida izohlab bergan va uning mazmun-mohiyatini quyidagicha ifodalagan: "real yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi real investitsiyalar hajmining o'sishiga olib keladi, o'z navbatida, real investitsiyalar hajmining o'sishi yana real yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishini ta'minlaydi...".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada statistik kuzatuv, rezidentlar bilan intervyu va so'rovnomalar o'tkazish, tizimlashtirish, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Global xalqaro sarmoyalar muhiti bu dunyo hali ham pandemiya oqibatlaridan o'ziga kelmagan paytda yuzaga kelgan Ukrainadagi urushning boshlanishi bilan keskin o'zgardi. Urush real daromadlarning pasayishiga va qarzdorlik stressi kuchayishiga olib keluvchi energiya tashuvchilar va oziq-ovqat narxlarining ko'tarilishi bilan butun dunyodagi milliardlab odamlarga daxl qiluvchi hayot qiymati inqirozini keltirib chiqargan holda, o'ziga bevosita yaqin bo'lgan hududlardan tashqarida ham ta'sir ko'rsatadi. Sarmoyadorlarning ikkilanishi va tavakkal qilishni istamasligi bu yilda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar hajmiga jiddiy daraja kamaytiruvchi bosim o'tkazishi mumkin.

2022-yilda va undan keyingi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarga sarmoyalar oqib kelishi oqibatlarini bashorat qilish qiyin. Mintaqada mustahkam sarmoyaviy aloqalarga ega bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'siridan tashqari, xalqaro xususiy sarmoyalarning acosiy detepminantiga bog'liq bo'ladi. Agar o'tmishga qarab baho beradigan bo'lsak, u holda, oziq-ovqat narxlari oxirgi marta shunday yuqori bo'lgan 2007-2008-yillardagi oziq-ovqat inqirozi davrida tartibsizliklar 60 dan ortiq davlatda sodir bo'lgan edi.

Natija rivojlanish istiqbollari uchun katta ahamiyat kacb etadi. Ishlab chiqarish salohiyatiga sarmoya kiritishga, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va iqlim o'zgarishining oldini olish va unga moslashishga bo'lgan ehtiyoj nihoyatda katta. Ushbu sohalaridagi hozirgi sarmoya tendensiyalari bir ma'noda ijobiy ko'rilmaydi. Garchi 2021-yilda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar oqimi keskin ko'tarila boshlagan bo'lsa-da, sanoatdagi sarmoyalar sustligicha va ayniqsa, eng qashshoq mamlakatlardagi pandemiyadan oldingi darajadan ancha past holda qolmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga – infratuzilma, oziq-ovqat xavfsizligi, suv ta'minoti va sanitariya, shuningdek, sog'liqni saqlash sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirishga sarmoyalar kiritish o'sib bormoqda, ammo bu 2030-yilgacha qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli emas. Iqlim o'zgarishining oldini olishga, ayniqsa, tiklanayotgan energiya manbalaridan foydalanish uchun sarmoyalarning ko'p qismini moliyalashtirish rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mazkur tizimga moslashish uchun sarmoyalar ajratilishida nomutanosibliklar mavjud.

Dunyo miqyosidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar oqimi 2021-yilda 1,58 trillion dollarni tashkil etdi, bu 2020-yilning nihoyatda past darajasidan 64 foizga ko'p (1-rasm).



1-rasm: 2008-2021-yillarda global va iqtisodiy guruhlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi¹

1 Doklad o mirovyykh investitsiyax: mejdunarodnyye nalogovyye reformy i ustoychivyye investitsii. 2022 g. UNCTAD/WIR/2022 (Overview).




Tiklanish, qo'shilish va singdirish bozorlarining shiddat bilan o'sishi va qulay moliyalashtirish shartlari va infratuzilmani rivojlantirish uchun yirik rag'batlantirish dasturlari tufayli xalqaro loyihalarni moliyalashtirishning jadal o'sishi tufayli sezilarli turtkini namoyon qildi.

2022-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarga hamda boshqa omillarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xitoyda global qiymat yaratish zanjirlarida muhim rol o'ynovchi hududlarda izolyatsiya choralarini takroran joriy qilgan holda Covid-19ning avj olishi, qayta tashkil etilayotgan korxonalarga sarmoya kiritishni yanada kamaytirishi mumkin. Inflyatsiyaning yuqori darajada o'sishi kuzatilayotgan iqtisodiy jihatdan yetakchi mamlakatlarda kutilayotgan foiz stavkalarining o'sishi qo'shish va singdirish bozorlarining konyunkturasini pasaytiradi va xalqaro loyihalar moliyalashtirilishining o'sishini sekinlashtiradi.

Moliya bozorlaridagi salbiy kayfiyatlar va yaqinlashib kelayotgan retsessiya alomatlariga ega yetakchi mamlakatlarda foiz stavkalarining kutilayotgan o'sishi qo'shish va singdirish bozorlarini susaytiradi va salbiy moliyaviy bozor kayfiyati va surilib borayotgan retsessiya belgilari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarning pasayishini tezlashtirishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar o'sishining sekinlashishi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar oqimi ularning rivojlangan mintaqalarga oqimidan ko'ra sekinroq o'sdi, shunday bo'lsa ham 30 foizga ya'ni 837 milliard dollargacha ortdi. O'sish asosan Osiyodagi kuchli o'sish ko'rsatkichlari, Lotin Amerikasi va Karib havzasidagi qisman tiklanish va Afrikadagi ko'tarilish tufayli sodir bo'ldi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning global oqimlardagi ulushi 50 foizdan biroz yuqori bo'lib qoldi:

- Afrikaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar oqimi 2020-yildagi 39 milliard dollarga nisbatan 83 milliard dollarga yetdi. Aksariyat oluvchilarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarning bir maromda o'sishi kuzatildi;
- rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida, bir qancha Covid-19 to'liqlariga qaramay, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar 619 milliard dollarga ko'tarilib, ketma-ket uchinchi yil rekord darajaga yetdi;
- Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar 56 foizga o'sib, 134 milliard dollarni tashkil etdi;
- tapkibiy jihatdan zaif, qaltic va kichik iqtisodiyotga ega mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kompaniyalar oqimi 15 foizga oshib, 39 milliard dollarga yetdi. Eng kam rivojlangan mamlakatlarga, dengizga chiqishi bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan kichik orol davlatlar kapital oqimi 2020-yildagi 3,5 foiz bilan taqqoslaganda, 2021-yilda jami hisobda atigi 2,5 foizni tashkil etdi.



2-rasm: Dunyo davlatlari moliya markazlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya tebranishlari²

² <https://unctad.org/fdistatistics>.



2021-yilda rivojlangan mamlakatlarning ko'pmillatli korxonalari o'zlarining xorijdagi sarmoyalarini 483 milliard dollardan 1,3 trillion dollargacha ikki baravardan ko'proqqa oshirdilar. Ularning global to'g'ri-dan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar olib chiqib ketishdagi ulushi to'rtinchi uch qismga o'sdi. O'sishning katta qismi rekord darajadagi qayta sarmoyalangan foyda hamda qo'shish va singdirish sohasidagi faolligining yuqori darajasi bilan bog'liq. 2021-yilda oraliq davlatlar orqali sarmoyalar olib chiqib ketilishining yuqori darajada o'zgaruvchanligi davom etdi. Yevropa ko'pmillatli korxonalarining jami tashqi sarmoyalari 2020-yildagi 21 milliard dollarlik g'ayritabiiy past darajadan 552 milliard dollargacha ko'tarildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ko'pmillatli korxonalarining xorijiy sarmoyalari hajmi 18 foizga oshib, 438 milliard dollarni tashkil etdi. Rivojlanayotgan Osiyo hatto pandemiya davrida ham asosiy sarmoya manbai bo'lib qoldi. Mintaqadan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar olib chiqib ketilishi 2021-yilda 4 foizga o'sib, 394 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa butun jahondagi to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar olib chiqib ketilishining deyarli to'rtinchi qismini tashkil etadi. Garchi rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlari tashqi sarmoyalarining umumiy hajmi oshgan bo'lsa-da, qarorgohlari ushbu mintaqada joylashgan kompaniyalar 2021-yilda kamroq xaridlarni amalga oshirdi. Xalqaro qo'shish va singdirish hajmi 35 foizga, 45 milliard dollargacha kamaydi. Sharqiy Osiyoda (asosan Xitoyda) qarorgohi bilan ko'pmillatli korxonalar xaridlari 2020-yildagi 44 milliard dollardan 6,3 milliard dollargacha pasaydi.

Rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlariga rekord darajadagi investitsiya oqimlari. Bir qancha Covid-19 to'liqlariga qaramay, rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar ketma-ket uchinchi yil rekord darajadagi 619 milliard dollarga ko'tarilib, mintaqaning tashqi zarbalarga chidamliligini ta'kidlaydi. Bu eng yirik to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalarni qabul qiluvchi mintaq bo'lib, global oqimning 40 foizi uning ulushiga to'g'ri keladi. 2021-yilgi o'sish an'anasi Janubiy Osiyodan tashqari butun mintaqada keng tarqaldi. Biroq ularning oqimi hali ham yuqori konsentratsiyasi bilan tavsiflanadi. Oltita mamlakat va hududlar (Xitoy, Gonkong (Xitoy), Singapur, Hindiston, Birlashgan Arab Amirliklari va Indoneziya, qayd etilgan tartibda) ulushiga mintaqadagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarning 80 foizdan ortig'iga to'g'ri keldi. Rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida barqaror rivojlangan maqsadlarga aloqador bo'lgan tarmoqlarga sarmoya kiritish sezilarli darajada oshdi. Ushbu tarmoqlardagi xalqaro loyihaviy moliyalashtirish hajmi, asosan qayta tiklanadigan energiya manbalariga bo'lgan katta qiziqish tufayli 74 foizga oshib, 121 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu sohadagi loyihalar qiymati 2020-yildagi 34 milliard dollardan 123 foizga oshib, 77 milliard dollarga yetdi.

Butun dunyoda xalqaro sarmoyalarni rag'batlantirish uchun soliq siyosatidan foydalanish. 1980-yilda o'rtacha 40 foizni tashkil etgan butun dunyodagi korporatsiyalarning foyda solig'i stavkasi so'nggi o'ttiz yil ichida asta-sekin pasayib, 2021-yilda taxminan 25 foizni tashkil etdi. Boshqa mamlakatlarga nisbatan soliq daromadlari manbai sifatida eng kam rivojlangan mamlakatlarda 2021-yilda korporatsiyalarning foyda solig'i stavkasi eng ko'p – 28 foizni tashkil etdi.

Yangi sarmoyalar emas, balki aksariyat foyda solig'i imtiyozlari bilan rag'batlantirish. So'nggi o'n yillikda qabul qilingan milliy sarmoya siyosatining chora-tadbirlari barcha mintaqalarda sarmoyalar uchun soliq imtiyozlarining keng qo'llanilganligidan dalolat beradi. Soliqqa tortish bilan bog'liq sarmoyaviy choralarni qabul qilgan 100 ta davlatdan 90 tasi soliqlarni qisqartirdi, yangi soliq imtiyozlarini joriy qildi yoki allaqachon taqdim qilingan soliq imtiyozlarini oshirdi. Joriy etilgan budjet-soliq imtiyozlarining uchdan bir qismidan ko'prog'i (39 foiz) foyda bilan bog'liq. Aksincha, har 10 ta yangi soliq imtiyozlarining 1 dan salgina ko'prog'i (13 foiz) xarajatlarni qisqartirishga aloqadordir.

Ham foyda, ham xarajatlarga doir imtiyozlar ko'pincha qo'shimcha budjet-soliq rag'batlantirish choralari bilan uyg'unlashtiriladi. QQS yoki import bojlari kabi bilvosita soliqlar va yig'imlarga nisbatan soliq imtiyozlari Osiyo, Lotin Amerikasi va Karib havzasida joriy qilingan barcha soliq imtiyozlarining taxminan 30 foizni tashkil qiladi. Ular shuningdek, Afrikada ham tez-tez (barcha soliq imtiyozlarining 24 foiz), lekin Yevropa va Shimoliy Amerikada ancha kamroq (13 foiz) qo'llaniladi. Import va eksport tartibini soddalashtirish, ruxsatnoma va litsenziyalarni "Yagona darcha" mexanizmlari yordamida rasmiylashtirish yoki ishchi vizalari berish tartibini soddalashtirish kabi tadbirkorlik faoliyatini yuritish sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari har bir mintaqada budjet-soliqqa oid rag'batlantirish tizimlari bilan birgalikda qo'llaniladigan eng ahamiyatli soliqdan tashqari rag'batlantirish vositasini ifodalaydi. Garchi bu yerda mintaqaviy tafovutlar katta bo'lsa-da, global miqyosda yangi imtiyozlarning aksariyati ishlov berish sanoati va xizmat ko'rsatish tarmog'idagi sarmoyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Qishloq xo'jaligi va kon sanoati uchun maxsus mo'ljallangan soliq imtiyozlari ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlar va eng kam rivojlangan mamlakatlarda taqdim etiladi. Mamlakat ichidagi muayyan hududlarni rivojlantirish dunyoning barcha mamlakatlarida (24 foiz), Afrikada (33 foiz) va Osiyoda (27 foiz) yangi soliq imtiyozlarini joriy etish bilan bog'liq bo'lgan siyosatning eng tez-tez uchraydigan maqsadi edi.

Soliqqa oid rag'batlantirishni takomillashtirish imkoniyatlari. Faqat taxminan 30 foiz hollarda imtiyozlar hamma uchun yagona mezonlar (masalan, sarmoyalar miqdori, yaratilgan ish o'rinlari soni yoki sarmoyalarning joylashuvi) asosida, qolganlari esa bunday qarorlar mezonlari e'lon qilinmaydigan va sarmoyadorlar bilan keli-shilmagan hollarda individual asosda beriladi.



XULOSA

So'nggi yillarda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar oqimi keskin ko'tarila boshlagan bo'lsa-da, sanoatdagi sarmoyalar sustligicha va ayniqsa, eng qashshoq mamlakatlardagi pandemiyadan oldingi holatidan ancha past holatda qolmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etib, rivojlanish ko'rsatkichlarini qayd etishda rivojlangan davlatlar tajribalarida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatgan mexanizm, ya'ni erkin iqtisodiy zonalar vositasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning asosiy dastaklaridan biri bank moliyaviy resurslari hisoblanib, banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hajmining asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar bo'yicha jami moliyalashtirish manbalari tarkibini tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni 2017-yil 7-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda PF-4059-sonli "Navoiy viloyatida Erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-aprelda PF-4436-sonli "Angren maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 10.04.2012.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-martda "Jizzax maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining 2013-yilga mo'ljallangan investitsion dasturi to'g'risida"gi 1855-sonli qarori.
7. Замятин Б. И. Свободные экономические зоны: Открыть проблемы, создания и развития. М. ГАУ-1993 г. стр -216.
8. Зименков Р. И. Свободные экономические зоны. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005 г. стр – 223.
9. Зименков Р. И. Свободные экономические зоны. Учебное пособие. М. ЮНИТИ – 2005 г. стр – 414.
10. Фоминский И. П. Иностранные инвестиции в России: современное состояние и перспективы. М.: Международное отношения. 1995 г. стр – 306.
11. Фоминский И. П. Свободные экономические зоны в экономике России. Общество и экономика. 1993 г. № 5, 3-16 стр.
12. Игнатов В. Г. Свободные экономические зоны. М.: Ось-89, 1997 г. стр – 314.
13. Комлев Ю. Свободные экономические зоны: зарубежный опыт. Алма-Ата. 1990 г. стр – 288.
14. Оценка индийскими экономистами открыта КНР по созданию СЭЗ //БИКИ №21, 22 февраля 2003год.
15. Данько Т. П., Округ З. М. Свободные экономические зоны. М.: ИНФРА-М. 1998, С. 145.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.